



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراس professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali  
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.  
Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Salam Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug‘bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





## SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Karimov Eminjon Gapardjonovich

mustaqil tadqiqotchi  
Farg‘ona davlat  
texnika universiteti

E-mail: [eminjonabdukarim@gmail.com](mailto:eminjonabdukarim@gmail.com)  
ORCID: 0009-0007-2557-5635

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida moliyaviy hisobotlar, boshqaruv hisobi ma'lumotlari, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hamda tashqi iqtisodiy axborotlarni yagona platformada integratsiyalash imkoniyatlari o'rganildi. Moliyaviy tahlil jarayonlarida Business Intelligence, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning afzalliklari asoslandi. Taklif etilgan model korxonalarda tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish tezligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish muddatini qisqartirish hamda moliyaviy risklarni samarali boshqarishga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy axborot tizimlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy tahlil, axborot tizimi, sanoat korxonasi, Business Intelligence, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, moliyaviy boshqaruv, integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasi.

## ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Каримов Эминжон Гапарджонович

независимый исследователь  
Ферганский государственный  
технический университет

E-mail: [eminjonabdukarim@gmail.com](mailto:eminjonabdukarim@gmail.com)  
ORCID: 0009-0007-2557-5635

**Аннотация.** В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты совершенствования информационных систем финансового анализа на промышленных предприятиях. Рассмотрены возможности интеграции финансовой отчетности, данных управленческого учета, производственных показателей и внешней экономической информации в единую цифровую платформу. Обоснованы преимущества использования технологий Business Intelligence, облачных решений и инструментов искусственного интеллекта в процессах финансового анализа. Предложенная модель способствует ускорению формирования аналитической информации, сокращению сроков принятия управленческих решений и повышению эффективности управления финансовыми рисками. Результаты исследования подтверждают важную роль современных информационных систем в обеспечении финансовой устойчивости, повышении эффективности деятельности и конкурентоспособности промышленных предприятий в условиях цифровой трансформации.

**Ключевые слова:** финансовый анализ, информационная система, промышленное предприятие, Business Intelligence, цифровая трансформация, искусственный интеллект, финансовое управление, интегрированная база данных.





**ISSUES OF IMPROVING THE INFORMATION SYSTEM FOR FINANCIAL  
ANALYSIS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES**

**Karimov Eminjon Gapardjonovich**

*Independent Researcher*

*Fergana State*

*Technical University*

*E-mail: [eminjonabdukarim@gmail.com](mailto:eminjonabdukarim@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0007-2557-5635*

**Abstract.** *This article examines the theoretical and practical aspects of improving financial analysis information systems in industrial enterprises. The study explores the possibilities of integrating financial statements, management accounting data, production indicators, and external economic information into a unified digital platform. The advantages of applying Business Intelligence technologies, cloud computing, and artificial intelligence tools in financial analysis processes are substantiated. The proposed model contributes to accelerating analytical data processing, reducing the time required for managerial decision-making, and improving financial risk management. The findings demonstrate that modern information systems play a crucial role in enhancing the financial stability, operational efficiency, and competitiveness of industrial enterprises in the context of digital transformation.*

**Keywords:** *financial analysis, information system, industrial enterprise, Business Intelligence, digital transformation, artificial intelligence, financial management, integrated database.*

**Kirish**

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va global raqobat muhitining kuchayishi korxonalarda boshqaruv tizimlarini takomillashtirishni, xususan, moliyaviy axborotlardan foydalanish samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Sanoat korxonalari faoliyatining murakkablashuvi, ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi hamda moliyaviy resurslar harakatining ortib borishi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkor va ishonchli tahliliy axborotlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu sababli moliyaviy tahlil axborot tizimlari korxonada boshqaruvining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda [1].

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy tahlilning vazifalari korxonaning moliyaviy holatini baholash bilan cheklanib qolmay, balki kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini prognozlash, risklarni aniqlash, investitsion loyihalarni baholash va strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur axborot bazasini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Jahon amaliyotida ERP, Business Intelligence, Big Data va sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan axborot tizimlari moliyaviy tahlil samaradorligini sezilarli darajada oshirib, boshqaruv jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda [2].

O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [3]. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sanoat ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilgan.

So‘nggi yillarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish, korporativ boshqaruv tamoyillarini rivojlantirish va moliyaviy shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar korxonalarda moliyaviy axborotlarning sifati va ishonchliligiga bo‘lgan talablarni yanada oshirmoqda [4]. Bu esa moliyaviy tahlil axborot





tizimlarini takomillashtirish va ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirishni zaruriyatga aylantirmoqda.

Biroq amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil jarayonlari yetarli darajada avtomatlashtirilmagan. Moliyaviy ma'lumotlarning turli dasturiy platformalarda shakllanishi, axborot tizimlarining integratsiyalashuv darajasining pastligi, tahliliy modullarning cheklanganligi hamda real vaqt rejimida monitoring imkoniyatlarining yetarli emasligi boshqaruv qarorlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega mutaxassislarning yetishmasligi ham mazkur sohadagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [5].

Mazkur holat sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganishni talab etadi. Moliyaviy tahlil jarayonlarining raqamlashtirilishi korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ichki imkoniyatlarni aniqlash, risklarni boshqarish sifatini oshirish hamda raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish iqtisodiyot fanining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimlarini rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va biznes-analitika texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Moliyaviy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ushbu sohaning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirmoqda.

Moliyaviy tahlilning axborot bazasini shakllantirish masalalari E.G. Karimov tomonidan chuqur tadqiq etilgan. U moliyaviy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarini ilmiy jihatdan tasniflash va tizimlashtirish zarurligini asoslab, moliyaviy hisobotlar, boshqaruv hisobi ma'lumotlari hamda tashqi iqtisodiy axborotlarni yagona integratsiyalashgan tizimda birlashtirish tahlil natijalarining ishonchliligi va tezkorligini oshirishini ta'kidlaydi [6].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy tahlilning zamonaviy yo'nalishlari I.N. Ismanov va D.A. Muxamadjonova tomonidan o'rganilgan. Mualliflar sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy tahlil jarayonlariga integratsiyasi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, risklarni baholash va moliyaviy natijalarni prognozlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishini ilmiy asoslab berganlar. Ularning fikricha, kelajakdagi moliyaviy tahlil tizimlari mashinaviy o'rganish algoritmlari va Big Data texnologiyalariga tayangan holda shakllanadi [7].

Moliyaviy boshqaruvni axborot tizimlari asosida tashkil etish masalalari A.A. Aliyev va Sh. Salohiddinova tadqiqotlarida yoritilgan. Mualliflar ERP, Business Intelligence (BI) va bulutli texnologiyalarni korxonalarda joriy etish moliyaviy monitoring, rejalashtirish va nazorat jarayonlarining samaradorligini oshirishini ko'rsatganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli axborot tizimlari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi hamda real vaqt rejimida tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish imkonini yaratadi [8].

Sh.A. Muxammadova moliyaviy tahlilning zamonaviy usullari va modellari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlilini sun'iy intellekt asosidagi analitik vositalar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif DuPont modeli, Altman Z-score modeli va prognozlash algoritmlarining zamonaviy axborot tizimlari tarkibiga integratsiyalashuvi korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash imkoniyatlarini kengaytirishini qayd etadi [9].

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham moliyaviy tahlil axborot tizimlarining turli jihatlari keng o'rganilgan. A.N. Trusov, P.Y. Ivanchenko va D.A. Katsuro iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish metodologiyasini





taklif etib, iqtisodiy ma'lumotlarni standartlashtirish va bulutli texnologiyalar asosida saqlash tahliliy jarayonlarning samaradorligini oshirishini asoslab berganlar [10].

M.N. Ivliev, A.V. Melnikov va S.N. Chernyeva korxonalar moliyaviy holatini baholashga mo'ljallangan ekspert-statistik yondashuv asosidagi axborot tizimini ishlab chiqqanlar. Tadqiqotda moliyaviy ko'rsatkichlarni umumlashtiruvchi integral reyting indikatorlari orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash modeli taklif etilgan [11].

T.I. Minina va D.V. Kuleshov moliyaviy tahlilni avtomatlashtirish muammolarini tadqiq qilib, sifatli axborot bazasi hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash algoritmlarini yaratish zamonaviy moliyaviy tahlil tizimlarining asosiy sharti ekanligini ko'rsatadilar. Ularning fikriga ko'ra, moliyaviy tahlilning samaradorligi bevosita axborot tizimining funksional imkoniyatlari va ma'lumotlar bazasining sifati bilan bog'liq [12].

E.A. Bolotnova, M.S. Kosyan va A.V. Prikhodko moliyaviy tahlilning raqamlashtirish davridagi transformatsiyasini tadqiq etib, sun'iy intellekt va zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanish tahlilning aniqligi, tezkorligi hamda prognozlash imkoniyatlarini sezilarli ravishda oshirishini ta'kidlaydilar [13].

V.Yu. Kondratyev va L.K. Efimiadi axborot tizimlari samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqib, axborot tizimlarini joriy etishdan oldin ularning iqtisodiy samaradorligini investitsion tahlil usullari asosida baholash zarurligini asoslaganlar. Mualliflar ROI, TCO va TEI kabi ko'rsatkichlar axborot tizimlariga yo'naltirilgan investitsiyalarning natijadorligini aniqlashda muhim vosita ekanligini qayd etadilar [14; 15].

O'rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda moliyaviy tahlil axborot tizimlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritilgan bo'lsa-da, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari, moliyaviy ko'rsatkichlari va boshqaruv qarorlarini yagona raqamli platforma doirasida integratsiyalash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimlarini takomillashtirish masalalarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini moliyaviy tahlil va axborot tizimlariga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda sanoat korxonalarini faoliyatiga doir ma'lumotlar tashkil etdi.

### **Tahlil va natijalar**

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda moliyaviy tahlil axborot tizimlari korxonaning moliyaviy holatini baholash, risklarni aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida sanoat korxonalarida qo'llanilayotgan moliyaviy tahlil amaliyoti va zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari o'zaro taqqoslandi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ko'plab sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil jarayonlari hali ham an'anaviy usullar asosida tashkil etilgan bo'lib, ma'lumotlar turli bo'limlarda alohida shakllantiriladi. Natijada tahlil uchun zarur axborotlarni yig'ish va umumlashtirish jarayonlari qo'shimcha vaqt talab qiladi. Bundan tashqari, ma'lumotlarning takrorlanishi yoki ayrim ko'rsatkichlarning o'z vaqtida yangilanmasligi boshqaruv qarorlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotlar, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, boshqaruv hisobi ma'lumotlari va tashqi iqtisodiy axborotlarni yagona platformada jamlaydigan integratsiyalashgan axborot tizimi modeli ishlab chiqildi.





1-jadval

**Moliyaviy tahlil axborot tizimining asosiy elementlari va ularning boshqaruvdagi ahamiyati<sup>34</sup>**

Tizim elementi	Vazifasi	Kutilayotgan natija
Moliyaviy hisobotlar bazasi	Moliyaviy ma'lumotlarni yig'ish	Axborotlarning yaxlitligi
Boshqaruv hisobi moduli	Ichki ko'rsatkichlarni monitoring qilish	Xarajatlar nazoratining kuchayishi
BI (Business Intelligence) paneli	Vizual tahlil va monitoring	Tezkor boshqaruv qarorlari
Prognozlash moduli	Kelajakdagi tendensiyalarni baholash	Risklarni kamaytirish
Sun'iy intellekt algoritmlari	Tahliliy xulosalarni avtomatlashtirish	Qarorlar aniqligining oshishi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, moliyaviy tahlil tizimining samaradorligi alohida dasturiy vositalar mavjudligi bilan emas, balki ularning o'zaro integratsiyalashuv darajasi bilan belgilanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish va moliyaviy ma'lumotlarning yagona bazada shakllantirilishi tahlil natijalarining aniqligini oshiradi.

Tadqiqot doirasida sanoat korxonasi faoliyatiga moslashtirilgan takomillashtirilgan moliyaviy tahlil axborot tizimining konseptual modeli ishlab chiqildi.

1-rasm.

**Sanoat korxonasida moliyaviy tahlil axborot tizimining takomillashtirilgan modeli<sup>35</sup>**



Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzildi.

<sup>34</sup> Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va tadqiqot natijalari asosida tuzildi.

<sup>35</sup> Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzildi.





Mazkur model sanoat korxonasi moliyaviy tahlil jarayonini raqamlashtirish va axborot oqimlarini yagona tizimda integratsiyalashga qaratilgan. Modelning markazida “Yagona axborot bazasi” joylashgan bo‘lib, unga ishlab chiqarish, buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi va tashqi iqtisodiy axborotlar jamlanadi. Bu esa ma’lumotlarning takrorlanishini kamaytirib, ularning ishonchliligi va tezkorligini oshiradi.

Yagona bazada shakllangan ma’lumotlar analitik qayta ishlash moduli orqali tahlil qilinadi hamda korxonaning rentabellik, likvidlik, moliyaviy barqarorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari baholanadi. Shuningdek, tizim prognozlash va risklarni baholash imkoniyatlarini yaratib, korxonaning kelgusidagi moliyaviy holatini oldindan aniqlashga xizmat qiladi. Natijada, moliyaviy tahlil axborot tizimi asosida shakllantirilgan ma’lumotlar strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshiradi, resurslardan samarali foydalanish va korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytirishga yordam beradi.

Tadqiqotning amaliy qismida shartli ravishda to‘qimachilik sanoati korxonasi misolida takomillashtirilgan axborot tizimining iqtisodiy samaradorligi baholandi. Korxonada kalava ip va tayyor mato ishlab chiqarilishi nazarda tutildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, axborot tizimi joriy etilishidan avval moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun o‘rtacha 4–5 ish kuni talab qilingan. Takomillashtirilgan tizimdan foydalanilgandan so‘ng mazkur ko‘rsatkich bir ish kunigacha qisqargan.

2-jadval.

**Takomillashtirilgan tizim joriy etilishining iqtisodiy natijalari<sup>36</sup>**

Ko‘rsatkich	Eski tizim	Takomillashtirilgan tizim
Hisobot tayyorlash muddati	5 kun	1 kun
Tahliliy xatolar ulushi	7,8 %	2,0 %
Qaror qabul qilish muddati	6 kun	2 kun
Debitor qarzdorlik aylanish davri	70 kun	55 kun
Operatsion rentabellik	13,2 %	16,5 %
Ma’lumotlarni qayta ishlash xarajatlari	100 %	72 %

Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzildi.

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot tizimini modernizatsiya qilish natijasida operatsion rentabellik 3,3 foiz punktga oshgan. Shu bilan birga, debitor qarzdorlik aylanish davrining qisqarishi aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini yaxshilagan.

Tahlil jarayonida xarajatlar tuzilmasining o‘zgarishi ham baholandi. Integratsiyalashgan axborot tizimi yordamida ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi bo‘yicha tezkor monitoring amalga oshirildi. Natijada energiya resurslari va yordamchi materiallar sarfi bo‘yicha normadan ortiq og‘ishlar o‘z vaqtida aniqlanib, xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yaratildi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy tahlil axborot tizimlarining samaradorligi faqat hisobotlarni avtomatlashtirish bilan cheklanmaydi. Eng muhim natija – bu korxonada rahbariyatining strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarining kengayishidir. Masalan, rentabellik pasayish tendensiyasi yoki likvidlik darajasining yomonlashuvi haqidagi ma’lumotlar tizim tomonidan avtomatik aniqlanib, boshqaruv organlariga tezkor ravishda yetkaziladi.

Shuningdek, sun‘iy intellekt elementlarini moliyaviy tahlil tizimiga integratsiya qilish istiqbolli yo‘nalish sifatida baholandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida sotuv hajmi, pul oqimlari va debitor qarzdorlik dinamikasini prognozlash mumkin. Bu esa korxonaga moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash va ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida moliyaviy tahlil axborot tizimining samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liqligi aniqlandi:

<sup>36</sup> Manba: muallif tomonidan hisob-kitoblar asosida tuzildi.





- ma’lumotlar bazasining integratsiyalashganligi;
- axborotlarning yangilanish tezligi;
- analitik vositalarning rivojlanganlik darajasi;
- prognozlash modullarining mavjudligi;
- sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati.

Yuqoridagi omillar birgalikda qo’llanilganda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari, korxonalar faoliyatining turli yo’nalishlari bo’yicha ma’lumotlar yagona tizimga birlashtirilishi natijasida strategik va operativ boshqaruv o’rtasidagi uzilishlar kamayadi.

Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimlarini takomillashtirish korxonalar resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish, boshqaruv qarorlarining tezkorligini ta’minlash hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishning muhim omili ekanligini tasdiqladi. Shu sababli kelgusida sanoat korxonalarida BI-platfomalari, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi analitik modullarni joriy etish moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimlarini takomillashtirish korxonalar boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko’rsatdi. O’rganishlar natijasida moliyaviy ma’lumotlarning turli manbalarda shakllanishi, axborot tizimlari o’rtasidagi integratsiyaning yetarli emasligi, tahliliy jarayonlarning qisman avtomatlashtirilganligi hamda real vaqt rejimida monitoring imkoniyatlarining cheklanganligi boshqaruv qarorlarining sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan takomillashtirilgan moliyaviy tahlil axborot tizimi modeli moliyaviy hisobotlar, boshqaruv hisobi ma’lumotlari, ishlab chiqarish ko’rsatkichlari va tashqi iqtisodiy axborotlarni yagona ma’lumotlar bazasida integratsiyalash imkonini berishi asoslandi. Natijada tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish tezligi oshishi, moliyaviy ko’rsatkichlarning aniqligi yaxshilanishi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish muddati qisqarishi isbotlandi.

Amaliy hisob-kitoblar axborot tizimini modernizatsiya qilish natijasida hisobotlarni tayyorlash muddati qisqarishi, tahliliy xatolar kamayishi, debitor qarzdorlik aylanishi tezlashishi va operatsion rentabellikning oshishini ko’rsatdi. Bu esa moliyaviy tahlil axborot tizimlari korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- sanoat korxonalarida moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv hisobi ma’lumotlarini yagona raqamli platformada integratsiyalashni ta’minlash;
- moliyaviy tahlil jarayonlariga Business Intelligence (BI) texnologiyalarini keng joriy etish orqali real vaqt rejimida monitoring va vizual tahlil imkoniyatlarini rivojlantirish;
- moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash hamda pul oqimlarini prognozlash maqsadida sun’iy intellekt va mashinaviy o’rganish algoritmlaridan foydalanishni kengaytirish;
- axborot tizimlarining iqtisodiy samaradorligini ROI, TCO va TEI ko’rsatkichlari asosida muntazam baholab borish mexanizmini joriy etish;
- moliyaviy tahlil va raqamli texnologiyalar bo’yicha mutaxassislar malakasini oshirishga qaratilgan korporativ o’quv dasturlarini tashkil etish;
- bulutli texnologiyalar asosida ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali axborot xavfsizligi va tizimlarning moslashuvchanligini kuchaytirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi sanoat korxonalarida moliyaviy boshqaruv sifati va tezkorligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish, moliyaviy





risklarni kamaytirish hamda korxonalarining investitsion jozibadorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Loudon, K. C., & Loudon, J. P. (2015). Management information systems: Managing the digital firm. Pearson Publishing.
2. Romney, M. B., Steinbart, P. J., Summers, S. L., & Wood, D. A. (2021). Accounting Information Systems (15th ed.). Pearson.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). PF–6079-son Farmon. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-5030957>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026). PF–21-son Farmon. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-8050769?ONDATE=17.02.2026>
5. United Nations Development Programme. (2025). Digital Economy Assessment of Uzbekistan. New York, NY: UNDP. <https://www.undp.org/uzbekistan/2025annualreport>
6. Gapardjonovich, K. E. (2026). MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT MANBALARINING TASNIFI VA TIZIMLASHTIRISH MASALALARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (15. I), 1977-1990.
7. Ismanov, I. N., & Muxamadjonova, D. A. (2026). SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY TAHLIL JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA AMALIY MEKANIZMLAR. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (15. I), 1306-1316.
8. Aliyev, A. A., & Salohiddinova, Sh. (2026). AXBOROT TIZIMLARI VOSITASIDA KORXONA MOLIYAVIY FAOLIYATINI BOSHQARISHNI OPTIMALLASHTIRISH. Dunyo ilmiy hamjamiyat yagiliklari, muammo va yechimlar respublika konferensiyasi, 2(1), 21-25.
9. Muxammadova, S. (2026). KOMPANIYA FAOLIYATINING MOLIYAVIY TAHLILI: ZAMONAVIY USULLAR VA MODELLAR. MOLIYA VA BANK ISHI, 12(1).
10. Трусов, А. Н., Иванченко, П. Ю., & Кацуро, Д. А. (2014). Разработка автоматизированной информационной системы для оптимизационного анализа экономических процессов. Современные наукоемкие технологии, (11), 38-40.
11. Ивлиев, М. Н., Черняева, С. Н., & Мельников, А. В. (2016). Разработка информационной системы анализа финансового состояния предприятий на основе экспертно-статистического подхода. Вестник Воронежского государственного университета инженерных технологий, (4 (70)), 416-421.
12. Минаева, Т. И., & Кулешов, Д. В. (2020). Проблемы автоматизации финансового анализа. Хроноэкономика, (7 (28)), 20-23.
13. Болотнова, Е. А., Косян, М. С., & Приходько, А. В. (2022). Трансформация финансового анализа в период цифровизации. Естественно-гуманитарные исследования, (3 (41)), 67-71.
14. Кондратьев, В. Ю., & Ефимиади, Л. К. (2022). Методы оценки эффективности информационных систем. Современная экономика: проблемы и решения, 10, 107-120.
15. Кондратьев, В. Ю., & Ефимиади, Л. К. (2023). Экономическая оценка эффективности информационных систем методиками инвестиционного анализа. Современная экономика: проблемы и решения, 11, 58-72.

